

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## **TOSHKENT VILOYATIDA UCHRAYDIGAN INVAZIV TURLAR**

**Abulfayzov Husniddin Shoxo'jayeovich**

[husniddin.abulfayzov1@mail.ru](mailto:husniddin.abulfayzov1@mail.ru)

O'zR FA Botanika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu ma'qolada Toshkent viloyatida o'suvchi invaziv turlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada invaziv turlarning qanday kirib kelganligi, boshqa o'simlik areallarini qanday egallab olinishi haqida ma'lumot keltirilgan. Ilmiy nashrlar, dala tadqiqotlari natijasida Toshkent viloyatida 62 ta invaziv turlar borligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** invaziv turlar, flora, jamoa, iqlimlashish, Toshkent.

**Аннотация:** В статье представлены сведения об инвазионных видах, произрастающих в Ташкентской области. В статье описано, как инвазионные виды были инвазионными, интродуцированы и др. Приведены сведения о способах заселения растительных территорий. В результате научных публикаций и полевых исследований установлено, что в Ташкентской области распространено 63 инвазионных вида.

**Ключевые слова:** инвазионные виды, флора, сообщество, изменение климата, Ташкент.

**Abstract:** This article contains information about invasive species growing in Tashkent region. The article contains information about how invasive species came in and how they occupy other plant areas. As a result of scientific publications and field research, it was found that there are 62 invasive species in Tashkent region. **Key words:** invasive species, flora, community, acclimatization, Tashkent.

**KIRISH.** Invaziv o'simliklar dunyo o'simliklarining xilma-xilligi uchun eng jiddiy tahdidlardan biridir. Yevropada jami 6000 ga yaqin begona taksonlar qayd etilgan [1]. Shu jumladan O'zbekistonga 228 ta invaziv o'simlik borligi aniqlangan. O'simlik dunyosining mahalliy flora ga xos bo'lmagan invaziv qismi, birinchi navbatda, insonning bevosita yoki bilvosita faoliyati natijasida (ya'ni, florogenezning tabiiy jarayoni bilan bog'liq emas) ma'lum bir hududga kiritilishi natijasida hosil bo'ladi [2]. O'zbekiston o'simliklar xilma-xilligini o'rganishga doir juda ko'p tadqiqotlar o'tkazilayapti, shu bilan birga O'zbekiston hududidagi invaziv turlarning ta'siri va tarqalishi yetarlicha o'rganilmagan. Bugungi kunda O'zbekistonda begona, invaziv turlarning keng tarqalishiga ekotizmga insonlarning ta'siri kuchayishiga bog'liq. Bundan kelib ilmiy tadqiqot maqsadi Toshkent viloyatidagi invaziv turlarning tarqalish areallari va ta'sirini o'rganish.

**Material va metodika.** Tadqiqot 2 yil davomida Toshkent viloyatida o'tkazildi (2021-2023). Dala tadqiqotlari natijalariga asoslanib yig'ilgan materiallar, Milliy gerbariydan (TASH) olingan namunalar va ilmiy manbalar (O'zbekiston florasini) dan foydalandi. Tadqiqotimizda mashrut metodlari va ArcGIS 10.5, Google Earth Pro, Global Biodiversity Information Facility (GBIF, [www.gbif.org](http://www.gbif.org)), plantarium.ru dasturlardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Toshkent viloyatida uchraydigan invaziv turlarning ro'yxati shakllandirildi. Ushbu ro'yxat ilmiy manbalar, dala tadqiqotlari va gerbariy materiallarini tahlil qilish asosida tuzilgan.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Toshkent viloyatida 62 ta invaziv turlar aniqlangan. Ushbu invaziv turlar 16 ta oilaga tegishli. Ushbu ro'yxatda mos ravishda Asteraceae oilasining 21 ta tur Poaceae oilasining 14 ta tur bilan eng ko'p turlari tarqalgan oilalar hisoblanadi.

1-jadval


### Toshkent viloyatida uchraydigan invaziv turlarning yetakchi polimorf oilalari

No	Oilalar	Miqdor turlari
1	Asteraceae	20
2	Poaceae	14
3	Solanaceae	5
4	Caryophyllaceae	4
5	Amaranthaceae	3
6	Brassicaceae (Cruciferae)	3
7	Ranunculaceae	2
8	Resedaceae	2
9	Salviniaceae	1
10	Rosaceae	1
11	Euphorbiaceae	1
12	Simaroubaceae	1
13	Boraginaceae	1
14	Convolvulaceae	1
15	Plantaginaceae	1
16	Orobanchaceae	1
<b>Jami</b>	<b>16</b>	<b>62 ta tur</b>

Tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar natijasi Toshkent viloyatida eng keng tarqalgan invaziv turlarga; *Bidens frondosa* L., *Spergularia rubra* (L.) J. Presl & C. Presl, *Galinsoga parviflora* Cav kiradi [3]. *Spergularia rubra* ancha keng tarqalgan. Bu o'simlik birinchi marta 2007 yilda Chotqol tog' tizmasida terilgan [4]. Keyingi yillarda Janubi-G'arbiy Tyan-Shanning O'zbekiston qismi florasini inventarizatsiya qilish jarayonida bu begona tur bir necha nuqtalarda qayd etilgan. Oxirgi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki Toshkent viloyatida Sharqiy Yevropa, Rossiya va boshqa ko'plab mintaqalarida invaziv tur hisoblangan *Bidens frondosa* L faol tarqalmoqda [5].

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.



**1-rasm. Tashkent viloyatida uchraydigan invaziv turlarning xaritasi**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak invaziv turlar zararli, chunki ular mahalliy turlarni siqib chiqaradi va butun ekotizimni o'zgartiradi. Invaziv turlarning zarari tobora ortib bormoqda, agar vaqtda zarur choralar ko'rilmasa ular egallagan areallar topora kengayib ko'p joylarda dominant turlarga aylanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduboyeva N.T. Ozodbekova G.A., Sotiboldiyeva D.I, Hakimova D.A., Maxkamov T.X. Adventiv/invaziv o'simlik *physalis angulata* ning ekologiyasi va dorivorlik xususiyatlari.(2022) Ta'lim fidoiylari.
2. К.Ш. Тожибаев, Х.К. Эсанов. Современное состояние изученности инвазионных видов Узбекистана, 2022, Research Gate.
3. Lazkov G.A., Sennikov A.N. Tojiboev K.Sh., Sultonova B. Yangi va nodir adventiv o'simliklardan Qirg'iziston va O'zbekiston // Tizim yangiliklari. yuqoriroq rast., 2011. – No 42. – B. 226-231.
4. Mayorov S.R., Bochkin V.D., Nasimovich Yu.A., Shcherbakov A.V. Moskva va Moskvaning sarguzashtli florası -skaya viloyati. – Moskva: KMK ilmiy nashrlari hamkorligi, 2012. – 412 p.
5. Эсанов Х.К. Бухоро воҳаси флораси: Монография. – Бухоро: Дурдона, 2019. – 158 б.